

# ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент кимё - технология институти

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қариш давлат университети

**Махкамова Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Джоробекова Айнуэр Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмудалиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алнева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Санпова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети


**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Одилов Абдор Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети

|                                                                                                                                                              |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>1. Валишер Элмуродович Абиров</b><br>ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ<br>ЁНДАШУВЛАР ВА МУНОЗАРА.....                                             | 5  |
| <b>2. Жалолиддин Тухташевич Аннаев</b><br>ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРМИТА-ТЕРМИЗДА БУДДАВИЙЛИК.....                                                                | 13 |
| <b>3. Феруза Парходовна Атамуратова</b><br>ҚАДИМГИ ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИДА ТАРМИТА-ТЕРМИЗ.....                                                                | 21 |
| <b>4. Мунаввар Абдурашид қизи Атамирзаева</b><br>МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ<br>МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ.....               | 28 |
| <b>5. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова</b><br>ЎЗБЕКИСТОН ШИФОБАХШ ЖОЙЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ИЛМИЙ<br>ЭКСПЕДИЦИЯЛАР ВА ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ.... | 35 |
| <b>6. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова</b><br>ТУРКИСТОН ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ<br>ИЛМИЙ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....                                          | 40 |
| <b>7. Дилафруз Аҳмедова Хусан қизи</b><br>МАКТУБЛАР МАНБА СИФАТИДА.....                                                                                      | 46 |
| <b>8. Oхunjon Axmat o'g'li Boboqulov</b><br>MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI<br>(davriy matbuot gazetalari tahlili asosida).....   | 53 |
| <b>9. Феруза Хаятовна Бобожонова</b><br>БУХОРОДА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ<br>(XIX АСР ОХИРИ-XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИ).....                                 | 58 |
| <b>10. Omon Olimjonovich Gadayev</b><br>MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI.....                                                  | 65 |
| <b>11. Дилорам Зияева</b><br>МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЎРТА АСРЛАРДА ЮЗ БЕРГАН УЙҒОНИШ.<br>ВАТАНДОШЛАРИМИЗНИНГ ЖАҲОН ТАМАДДУНИГА<br>ҚЎШГАН ҚИССАСИ.....                | 71 |
| <b>12. Farxod Sobirovich Ziyayev</b><br>TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI<br>QUROLI HARAKAT.....                                                    | 77 |
| <b>13. Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov</b><br>SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY<br>NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR.....                          | 84 |

|                                                                                                                                                                                                               |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>14. Baxtiyor Safarovich Nazirov</b><br>JADID VAKILLARINING AHOLINI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI<br>QARASHLARI.....                                                                                         | 109 |
| <b>15. Рустам Абдуваид ўгли Неъматов</b><br>ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ<br>ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....                                                                                | 114 |
| <b>16. Дилорам Сангирова</b><br>ЎРТА АСР ДАВЛАТЧИЛИК РАМЗЛАРИ СЎЗ ВА ТАСВИРДА.....                                                                                                                            | 120 |
| <b>17. Lyudmila Mixaylovna Sokolova</b><br>ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARIDAGI HUNARMANDLAR<br>USTOZIGA BAG‘ISHLANISH MAROSIMINING IBTIDOSI HAQIDA.....                                               | 130 |
| <b>18. Фазилат Нормуродовна Тургунова</b><br>СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРИ ФАОЛИЯТИНИНГ<br>РИВОЖЛАНИШИ.....                                                                                           | 142 |
| <b>19. Баходир Босимович Тўйчибоев</b><br>ҚОЯТОШ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ<br>ХУСУСИДА.....                                                                                               | 147 |
| <b>20. Раъно Нортўхтаевна Тўхтаева</b><br>ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН Кейинги ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТ...154                                                                                                    | 154 |
| <b>21. Dilshod Inomjon o‘g‘li To‘xtasinov</b><br>NORIN VA QORADARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK<br>TAHLILI VA UCHTERA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN<br>O‘RGANILISHI.....                     | 159 |
| <b>22. Mansur Xayrullayevich Fayzullayev</b><br>XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ-<br>ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИГА ДОИР МАСАЛАЛАРНИ ЎРГАНИЛИШИ<br>ТАРИХШУНОСЛИГИ.....                              | 170 |
| <b>23. Rashid Mamatkulovich Xolmurodov</b><br>TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANINI O‘RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI<br>MANBALARIDAN FOYDALANISH.....                                                               | 177 |
| <b>24. Tuyg‘un Rajabovich Ernazarov</b><br>TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING<br>TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR<br>(Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida)..... | 182 |
| <b>25. Бахтиёр Эргашевич Юлдашев, Светлана Владимировна Темирова</b><br>ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ “АВЕСТО”ДА<br>СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР.....                                                           | 187 |
| <b>26. Алишер Яркулов</b><br>АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ<br>ТУРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ХУСУСИДА.....                                                                                                | 195 |
| <b>27. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna</b><br>HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIIY FALSAFIY<br>YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR.....                                                                | 202 |



**Oxunjon Axmat o'g'li Boboqulov,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

## **MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI** (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida)

**For citation:** Okhunjon A. Babakulov, DIPLOMATIC RELATIONS OF THE INDEPENDENT STATE OF THE CONGO WITH THE SSSR (based on the analysis of periodicals). Look to the past. 2023, Special issue 1, pp.53-57

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8072203>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Kongo davlatining mustaqillikga erishish jarayonida rivojlangan mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari xususida davriy matbuot gazetalari tahlili asosida fikr yuritiladi. O'tgan asrning 50-60 yillarida Afrika qitasida sodir bo'layotgan geosiyosiy jarayonlar dunyo rivojlangan davlatlarning nazaridan chetda qolmadi. Natijada, mintaqamamlakatlari birin-ketin iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning tasiriga tusha boshladi. Mintaqaviy, etnik va konfessial mojarolar qitadavlatlarining asta-sekin mustaqil bo'lishiga olib keldi. Bunday jarayonlar Kongo davlatiga ham o'zining bevosita tasirini ko'rsata boshladi.

**Kalit so'zlar:** Kongo, Afrika, "Qizil O'zbekiston", M.Dejan, A.A.Gromiko, intervensiya, integratsiya, globalashuv, diplomatiya, David Dako.

**Охунжон Бабакулов,**  
Преподаватель Бухарского государственного  
педагогического института

## **ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ НЕЗАВИСИМОГО ГОСУДАРСТВА** **КОНГО С СССР (на основе анализа периодических изданий)**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются дипломатические отношения государства Конго с развитыми странами в процессе обретения независимости на основе анализа периодических изданий. Геополитические процессы, происходящие на Африканском континенте в 50-60-е годы прошлого века, не остались незамеченными развитыми странами мира. В результате страны региона стали одна за другой попадать под влияние экономически развитых стран. Региональные, этнические и конфессиональные конфликты привели к постепенному обретению независимости континентальными странами, такие процессы стали оказывать непосредственное влияние на Конго.

**Ключевые слова:** Конго, Африка, «Красный Узбекистан», М.Дежан, А. А. Громыко, интервенция, интеграция, глобализация, дипломатия, Давид Дако.

**Okhunjon A. Babakulov,**  
Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute

## **DIPLOMATIC RELATIONS OF THE INDEPENDENT STATE OF THE CONGO WITH THE SSSR (based on the analysis of periodicals)**

### **ABSTRACT**

This article discusses the diplomatic relations of the Congo state with developed countries in the process of achieving independence based on the analysis of periodicals. The geopolitical processes taking place on the African continent in the 50s and 60s of the last century did not go unnoticed by the developed countries of the world. As a result, the countries of the region began to fall under the influence of economically developed countries one after another. Regional, ethnic and confessional conflicts led to the gradual independence of continental countries. Such processes began to have a direct impact on the Congo.

**Index Terms:** Congo, Africa, "Red Uzbekistan", M. Dejan, A.A.Gromyko, intervention, integration, globalization, diplomacy, David Dako.

### **1. Dolzarbligi:**

Kongo davlatining o'zaro iqtisodiy, madaniy va diplomatik aloqalarining yo'lga qo'yilishi va rivoj topib borishida rivojlangan mamlakatlar bilan munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mintaqada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalari geosiy jarayonlarda qita aholisiga o'zining salbiy va ijobiy tasirini ko'rsatmay qolmagan.

Afrika xalqlarning iqtisodiy jihatdan qoloq hududga kiritilishi tarixchilar tomonidan bildirilgan bir tomonlama munosabatdir. Biroq, davriy gazetalarini Kongo davlati misolida tahlil qilganimizda aksincha diplomatic munosabatlarda hudud aholisining ijtimoiy sohalariga o'zining ijobiy tomonlari ko'rsatganligiga oid tarixiy dalillarni uchratdik. Kongoning mustaqillikka erishish jarayonlarini tarixiy va qiyosiy tahlil qilishimiz dolzarbligi va davrtalabligi bilan ajralib turadi.

### **2. Metodlar:**

Mazkur maqolada tarixiy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, integratsion, retrospektiv, tahlil, kuzatish, eksperiment, tahlil va tavsif kabi metodlardan foydalanilgan holda Mustaqil Kongo Respublikasining SSSR bilan aloqalari tarixi davriy gazetalar orqali ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

### **3. Tadqiqot natijalari:**

O'tgan asrning 60-70 yillarida Kongo davlati imperalistik davlatlar bilan munosabatlarni o'rnatish boshladi. "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1960-yil 16-iyul 165-sonida Kongo respublikasiga nisbatan imperialistik intervensiyasi munosabati bilan Sovet hukumati bayonoti elon qilingan. Unga ko'ra, 13-iyulda SSSR tashqi ishlar vaziri A.A.Gromiko Belgiyaning Moskvadagi elchisi I.Kools janoblarini va AQSH ishlari vakili E.L.Friire janoblarini qabul qildi hamda ularga Kongo mustaqil respublikasiga nisbatan qilingan agressiyasiga javoban Sovet hukumati bayonotini topshirganligi xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Sovet hukumatining bayonoti shuningdek, Buyuk Britaniya elchisi ser P.Rayli, Fransiya elchisi M.Dejan janoblari va Germaniya federativ respublikasining SSSRdagi muvaqqat ishlari vakili K.X.Knoke janoblariga topshirildi. Ayni bir vaqtda SSSR tashqi ishlar vazirligi bayonotni Moskvadagi hamma elchixonalariga yuborildi. Sovet hukumati deyiladi bayonotda, Kongoda vujudga kelgan hamda tinchlik va xalqlar xavfsizligiga tahdid tug'diradigan jiddiy vaziyatda Birlashgan Millatlar tashkiloti agressiyani to'xtatish va Kongo mustaqil respublikasining suveren huquqlarini to'la tiklash uchun shoshilinch choralar ko'rish kerak. Sovet ittifoqi boshqa tinchliksevar davlatlar singari, deyiladi bayonotda, Kongo respublikasiga qarshi xiyonatkorona agressiyani qattiq qoralaydi. U Afrikadagi mustaqil davlatlar va xalqlarning Akkra va Addes-Abebada bo'lgan konferensiyalarning Afrikada sharmandalik mustamlaka tizimi hali saqlanib kelayotgan joylarida hamma mamlakatlar va xalqlarga darhol mustaqillik berish xususidagi adolatli talabini to'la qo'llab quvvatlaydi [1].

O'zbekiston SSRda ham Kongoda milliy ozodlik harakatlari boshlangandan keyin Belgiya uning boy Katanga o'lkasida separatlar bilan hamkorlikda ozodlik harakatini bo'g'ishga harakat

qilganligi O'zbekiston aholisiga davriy matbuot orqali xabardor qilib turilgan. Ayrimlar Kongo xalqiga xayrixohliklarini bildirib gazeta muharririyatiga o'z fikr-mulohazalarini yozib ham yuborganlar. "Pravda Vostoka" matbuot organi ularni jamlab qisqacha mazmuni o'z sahifalarida yoritgan. Masalan, "Правда Востока"ning 9 avgust sonida "Руки проч от Конго" ("Qo'lingni Kongodan tort") nomli maqola ostida o'zbekistonliklarning Kongo mustaqilligiga xalaqit berishga uringan imperialistik davlatlarga nisbatan maktub orqali bitilgan fikrlarini keltirib o'tgan. Maktub egalari M.Sadikov (Chirchiqdan), Samarqand ipakchilik fabrikasi ishchisi M.Muxtorova, 10-sinf o'quvchisi M.Karimova (Samarqand), Olmaliqdan Kozlov, Kotlov, Axmedov va Paramonovlar, qurilish texnikumi talabasi K.Mansurov, ulug' vatan urushi ishtirokchisi S.D. Mansurov (Toshkent shahri), F.Ya. Kolchigin (Mirzacho'l) va boshqalarning Kongo ozodligiga oid fikr-mulohazalaridan parchalar keltirilgan[9]. Bu uzoq Afrikada sodir bo'layotgan voqeyliklarga O'zbekistonliklarning befarq bo'lmaganligini ko'rsatadi.

SSSRning tashqi ishlar ministriligidaning birinchi o'rinbosari V.V. Kuznetsov BMT bosh sekretari Xammershild oldiga hukumat topshirig'i bilan borib, Kongodan xorijiy qo'shinlarni olib chiqish va BMT bayrog'i ostida yuboriladiganlarni Kongo hukumati bilan kelishgan holda yuborilish talabini qo'ygan.

18-avgustda Kongo va Kanada askarlari o'rtasidagi Leopoldvildagi otishma sababli BMTdan Kanada qo'shinlarini Kongodan olib chiqishni talab qilgan. 21-avgustda bosh assambleyada BMT yetakchisi Dag Xammershild yig'ilish o'tkazib, Kongo tomoni Belgiya qo'shinlari so'nggi ikkita Kamin va Kiton bazalaridan butunlay olib chiqilishi talab qilgan. Dag Xammershild Kongo masalasi bo'yicha oliy rasmiy vakil bo'lgan Ralf Banchni bo'shatib, uning o'rniga Rajeshvara Dayyal (Hindiston)ni tayinlagan.

24-avgustda Tunis davlati Kongoga shu vaqtgacha uch ming askari BMT bayrog'i ostida bo'lsada, yana qo'shimcha 600 askar yuborgan. Bundan tashqari 21-avgust kuni Qohira xalqaro aeroportidan BMT samolyotlarida 120 nafar BAR askarlari Kongoga uchib ketgan. Kongoni Afrikaning mustaqil davlatlari har tomonlama qo'llab-quvvatlab turgan. Kongoni birinchilardan bo'lib mustaqilligini har tomonlama himoya qilgan davlat Gana bo'lib, Kongoga o'z qo'shinlarini yuborishda SSSRdan yordam so'ragan. Il-18 transport samolyoti bu vazifani uddalagan. Mustaqillik uchun har qancha harakat qilinmasin G'arb davlatlari va ularning satelitlari o'z maqsadlaridan qaytmagan.

1960-yil 14-iyulda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh sekretari D.Hammershildning iltimosiga muvofiq, 13-iyul kechqurun Kongo respublikasida vujudga kelgan ahvol munosabati bilan, Xavfsizlik kengashining shoshilinch majlisi chaqirildi. Bosh sekretar xavfsizlik kengashining majlisida so'zlagan nutqida Kongo hukumatida telegrammalar olganligi va bu telegrammalarda Belgiya qo'shinlarining intervensiyasi sababli yosh respublikaga BMT tomonidan qurolli yordam berilishi iltimos qilinganligini aytdi. "Bu harakatlar hamda ularning yuridik va siyosiy aspektlari haqida o'z fikrlarini aytish bosh sekretarning ishi emas", - dedi Hammershild, - ammo Kongo hukumatidan olingan ma'lumotlardan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, bu qo'shinlarning turishi ichki, potensial jihatdan esa xalqaro keskinlikning manbaidir. Bunday sharoitda deydi Hammershild Belgiya qo'shinlarining turishi milliy xavfsizlik qo'shinlari yordami bilan tartib tiklanishiga qadar qoniqarli muvaqqat qaror deb qabul qilina olinmaydi[5].

Shundan keyin Tunis vakili M.Slim so'z olib, Belgiyaning Kongo ichki ishlariga aralashuvini oqlab bo'lmaydigan agressiya harakati deb xarakterlanadi. Jumladan, u Kongoda qon to'kish Belgiya qo'shinlari aralashgandan keyingina boshlanganligini eslatib o'tdi. M.Slim Tunis delegatsiyasi nomidan rezolutsiyasi loyihasini kiritdi. Rezolutsiya loyihasida Belgiyani Kongo hududidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishga chaqirish taklif etiladi.[6]

Shuningdek, rezolutsiya loyihasi BMT bosh sekretari zimmasiga Kongo hukumati bilan maslahatlashib, Kongoga harbiy yordam ko'rsatish uchun hamma choralarni ko'rish vazifasini yuklaydi. AQSH vakili G.Lodj hamma faktlarga qaramay, Kongoga qarshi "hech qanday agressiya qilingani yo'q" deb da'vo qildi va respublikada vujudga kelgan ahvolning aybdorlarini izlash uchun vaqt sarflamaslikka chaqirdi.

Xavfsizlik Kengashi majlisida, soʻzga chiqqan Sovet ittifoqi vakili A.A.Sobolev bunday dedi: mustamlakachilarning Kongoga qarshi harakatlari butun dunyo xalqlarini gʻazablantirdi. “Kongodan qoʻlingni tort!” deb yakkillik bilan qilingan talab yer yuzining hamma qismlaridan eshitilib turibdi. Kongoda roʻy bergan voqealarga Sovet ittifoqining munosabati va bu voqealarga berilgan baho Sovet hukumatining BMT ga aʼzo boʻlgan barcha davlat hukumatlariga yuborgan bayonotida bayon etilgan. Italiya vakili BMT bosh sekretarining Kongoga BMT xalqaro kuchlarini yuborish haqidagi taklifini qoʻllab quvvatladi. BMTning Kongodan Belgiya qoʻshinlarini olib chiqib ketishi toʻgʻrisidagi BMT xavfsizlik kengashi qarorini bajarmaslik uchun Katangada oʻz davlatini qurgan sotqin M.Chombi hukumati turli choralarni qoʻllay boshlagan[10]. Shu bilan birga u Belgiyaning Kongo respublikasi ichki ishlariga qurolli aralashuvi “intervensiya emas balki, xavfsizlik maqsadidagi muvaqqat chora” deb daʼvo qildi.

Angliya va Fransiya vakillari ham agressorni oqlab, Belgiya qoʻshinlari Kongoga „insonparvarlik maqsadlar bilan” kiritildi deb daʼvo qildilar. Sovet vakili A.A.Sobolev Tunis vakili taqdim etgan rezolutsiya loyihasiga tuzatishlar kiritdi. Bu tuzatishlar Belgiyaning qurolli agressiyasini qoralashni taklif etadi va Kongoga BMT aʼzosi boʻlgan Afrika davlatlari tomonidan harbiy yordam berilsin, deb tavsiya qiladi. Biroq bu tuzatishlarni Xavfsizlik Kengashida koʻpchilikni tashkil qilgan mustamlakachi davlatlar va ularning ittifoqchilari boʻlgan davlatlar vakillari rad etdilar. Soʻngra Tunisning rezolutsiya loyihasiga ovoz berildi. Loyiha 8 ovoz bilan qabul qilindi, 3 delegat betaraf qoldi. Rezolutsiya loyihasini yoqlab Tunis, SSSR, Polsha, Seylon, Argentina, AQSH, Ekvador, Italiya ovoz berdi. Angliya va Fransiya va Chan Kayshichi betaraf qoldi [2].

Xavfsizlik Kengashi, Kongo respublikasiga nisbatan Birlashgan Millatlar tashkilotining choralari koʻrishi toʻgʻrisidagi iltimos haqida bosh sekretarning dokladini qarab chiqib, Kongo respublikasi prezidenti va bosh ministrining harbiy yordam soʻrab, bosh sekretar nomiga yuborgan iltimosini (S/4382 hujjat) qarab chiqib, Belgiya hukumatini oʻz qoʻshinlarini Kongo respublikasi hududidan olib chiqib ketishga chaqiradi,

Kongo hukumatining kuch-gʻayrati natijasida va BMT ning texnika yordami bilan milliy xavfsizlik kuchlari, hukumatning fikricha, oʻz vazifasini udda qilishga tamomila qodir boʻlguncha, bosh sekretarga Kongo respublikasi hukumati bilan maslahatlashib, unga zarur boʻlgan harbiy yordam koʻrsatish yoʻlida zarur choralari koʻrish uchun vakolat beradi, bosh sekretardan zarur boʻlishiga qarab, Xavfsizlik Kengashiga maʼlumot berib turish soʻraladi [3].

Kongodagi Gʻarb intervensiyasiga Afrikadagi rivojlanishning sotsialistik yoʻnalishini tanlagan davlatlar tinch qarab turmagan. Birinchi navbatda Gana prezidenti Kwame Nkruma SSSR hukumatidan Gana qoʻshinlarini havo orqali Kongoga yetkazishni soʻragan.[7]

1960-yil 12-iyulda Parijda Fransiya bosh ministri Mishel Debre va Afrikadagi uch davlat (fransuz ittifoqiga kiradigan davlatlar) rahbarlari – Kongo respublikasining prezidenti Fyulber Yulu, Chad respublikasining bosh ministri Tombolbaye, Markaziy Afrika respublikasi hukumatining boshligʻi David Dako bugun bu davlatlarning mustaqilligini tasdiqlaydigan bitimni imzoladilar. Kongo poytaxtida ilmiy markaz tashkil etish kabilarni maʼlum qilgan.[8]

Bitimda keyingi vaqtlargacha fransuz ittifoqi umumiy organlari qaramogʻida boʻlgan funktsiya va vakolatlarining fransuz maʼmurlari tomonidan ana shu hududlar hukumatlariga topshirishni koʻzda tutadi. Bundan tashqari, hamkorlik haqidagi bitimlar imzolandi. Bu bitimlar ana shu uch davlatning fransuz ittifoqidagi yangi mavqeini va ularning Fransiya bilan yangi munosabatlarni belgilaydi. Bu bitimlar mustaqillik eʼlon qilinganidan keyin imzolandi[3].

#### **4. Xulosalar:**

Kongo respublikasining mustaqillikka erishish jarayonlari uzoq va murakkab tarixiy davrni oʻzida mujassamlashtirgan. Rivojlangan mamlakatlarining Kongoga nisbatan olib borgan diplomatik siyosati tomonlar manfaatini oʻzida mujassamlashtirganligi bilan ajralib turadi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, davriy gazetalar rivojlangan davlatlarning diplomatik munosabatlari hudud aholisining ijtimoiy sohalariga oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatganligidan dalolat beradi.

**Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Агрессия тўхтатилсин (ТАСС АҲБОРОТИ). // Қизил Ўзбекистон 16 июль, 1960 йил, N: 165 сон (11611) (Stop the aggression (TASS NEWS). // Red Uzbekistan July 16', 1960, N: 165 issue (11611)
2. БМТ Хавфсизлик Кенгашида (ТАСС АҲБОРОТИ).// Қизил Ўзбекистон 16 июль, 1960 йил, N: 165 сон (11611) (In the UN Security Council (TASS NEWS).// Kyzil Uzbekistan July 16, 1960, No. 165 (11611)
3. Хавфсизлик Кенгашининг Резолюцияси (ТАСС АҲБОРОТИ).// Қизил Ўзбекистон 16 июль, 1960 йил, N: 165 сон (11611) 3-б. (Resolution of the Security Council (TASS NEWS). // Red Uzbekistan July 16, 1960, No. 165 (11611) p. 3.)
4. Хавфсизлик Кенгашининг Резолюцияси (ТАСС АҲБОРОТИ).// Қизил Ўзбекистон 16 июль, 1960 йил, N: 165 сон (11611) (Resolution of the Security Council (TASS NEWS).// Kyzil Uzbekistan July 16, 1960, No. 165 (11611)
5. Қўшинлар чиқиб кетсин!!! (ТАСС АҲБОРОТИ).// Қизил Ўзбекистон 16 июль, 1960 йил, N: 165 сон (11611) (Let the troops leave!!! (TASS NEWS).// Red Uzbekistan July 16, 1960, N: 165 issue (11611)
6. Қўшинлар чиқиб кетсин!!! (ТАСС АҲБОРОТИ).// Қизил Ўзбекистон 16 июль, 1960 йил, N: 165 сон (11611) ( Let the troops leave!!! (TASS NEWS).// Red Uzbekistan July 16, 1960, N: 165 issue (11611)
7. Sovet hukumatiga minnatdorchilik // "Pravda Vostoka" 1960 yil 7 avgust, No 182. (11157).
8. БМТ bayrog'i ostida mustamlakachilik. V.V. Kuznetsovaning bayonoti. // Pravda Vostoka 1960 yil 23 avgust, No 195. (11170).
9. Tshombe qo'rqadi ... // "Pravda Vostoka" 1960 yil 17 avgust, No 190. (11165).
10. Nosirning Gana Prezidentiga telegrammasi // “Pravda Vostoka”, 1960 yil 13 avgust, No 187. (11162).

# ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000